



2021- yil yanvar-oktabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida Samarqand viloyatida jami 5 749,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 116,6 % ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar-oktabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxonalar va tashkilotlar soni 3,5 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni esa, 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 353 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 3,4 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 52,5 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlarining eng yuqori ulushi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 47,6 % ni tashkil etdi.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.11.2020- yil	01.11.2021- yil	
Samarqand viloyati	3042	3395	353
Samarqand sh.	1059	1197	138
Kattaqo'rg'on sh.	105	122	17
tumanlar:			
Oqdaryo	141	152	11
Bulung'ur	68	78	10
Jomboy	117	137	20
Ishtixon	146	151	5
Kattaqo'rg'on	120	137	17
Qo'shrabot	67	74	7
Narpay	84	86	2
Payariq	241	279	38
Pastdarg'om	311	319	8
Paxtachi	63	71	8
Samarqand	132	148	16
Nurobod	43	65	22
Urgut	213	241	28
Toyloq	132	138	6



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalarining hududlar kesimida
ulushi (% da), 01.11.2021- yil holatiga**




Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (35,3 %), Pastdarg'om (9,4 %) va Payariq (8,2 %) tumanlaridir.



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **739,5** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 115,1 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi nisbatan ulushi 12,9 % ni tashkil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,6** % i yoki 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **93,5** % ni), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **33,5** % i), Kattaqo'rg'on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,1** % i), Bulung'ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,3** % i), va Pstdarg'om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,6** %) tumanlarga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-oktabr
- 2020- yil yanvar-oktabr


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **65,3 %i** bajarilib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,7 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **126,3 %** ni tashkil etgan holda **3 753,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **21,8 %** ni tashkil etib, **1 256,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **95,0 %** ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **164,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʻati 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **70,7 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5585,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati **125,4 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,1%** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-oktabr

70,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **70,9 %** yoki **4076,9** mlrd. so'mni tashkil etgan.

17,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **711,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,5 %** ni tashkil etdi.

53,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2173,4** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,3%** ni tashkil etdi.

29,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1191,9** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **29,2 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-oktabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Samarqand viloyati	5 749,9	116,6	4 076,9
Samarqand sh.	1 837,4	111,8	1 315,9
Kattaqo'rg'on sh.	157,1	106,9	111,4
tumanlar:			
Oqdaryo	380,7	153,9	256,8
Bulung'ur	210,9	126,1	149,6
Jomboy	220,1	162,4	156,0
Ishtixon	276,6	113,4	196,1
Kattaqo'rg'on	160,7	108,1	113,9
Qo'shrabot	154,0	116,0	109,2
Narpay	148,6	106,0	105,3
Payariq	386,9	110,8	274,3
Pastdarg'om	449,9	112,8	319,0
Paxtachi	154,0	104,1	109,2
Samarqand	414,3	123,2	293,8
Nurobod	104,3	109,7	74,0
Urgut	285,2	106,5	202,2
Toyloq	409,2	128,3	290,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2020- yil yanvar-oktabr

7,4



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

18,7



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

73,9



Bino va inshootlarni qurilishi

2021- yil yanvar-oktabr

2,8



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

52,5



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

44,7



Bino va inshootlarni qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **17,9 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,0 %** punktga kamaydi. Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,1 %** punktga kamaydi, **33,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **24,1 %** punktga ko'payib, **48,7 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **9,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **29,4 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **90,8 %** (**29,5 %** punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,2 %** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **4,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **16,1 %** punktga kamaydi. **96,0 %** ulush kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **16,1 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-oktabr oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Samarqand sh.
1837,4

2

Toyloq
409,2

3 Pastdarg'om
449,9



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Nurobod
104,3

2

3 Qo'shrobot
154,0

Paxtachi
154,0





**Samarqand viloyati
statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

